

**JEK LONDON – YOVVOYI RUH TARJIMONI. “MARTIN IDEN” –
IJTIMOIY ZINAPOYA FOJIASI**

Raimberdiyeva Gulgora Husan qizi

*O’zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi Filologiya va tillarni o’qitish
(arab tili) yo’nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy maslahatchi: A. To’xtanazarov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz adabiyotining yorqin namoyondasi, jamiyatdagi mavjud muammolarni asarlarida o’ziga xos tarzda tasvirlay olgan adib Jek London hayoti va ijod yo’li haqida so‘z boradi. Shuningdek, yozuvchiga katta shuhrat keltirgan “Martin Iden” romani mazmun-mohiyati hamda yozilish uslubi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: fantaziya, janr, individual xislatlar, pafos, biografiya, ijtimoiy pillapoya, proza, ekzistensiyalizm.

Adabiyot har doim inson va jamiyat o’rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritib kelgan. Xususan, shaxsning o’zligini anglash, ijtimoiy zinapoyalarda ko’tarilish istagi va bu yo’ldagi ichki kurashlar muammosi barcha davrlarda dolzarb bo‘lib qolgan. Bu jihatdan amerikalik yozuvchi **Jek Londonning “Martin Iden”** romani adabiyot tarixida alohida o‘rin egallaydi. Asarda ko’tarilgan mavzular — kambag‘allikdan yuqori jamiyat qatlamiga intilgan ijodkor taqdiri, jamiyatning ikkiyuzlamachiligi, muvaffaqiyat va tan olinishga bo‘lgan sog‘lom va nosog‘lom ishtyoq — bugungi zamonaviy insonning hayotida ham o‘z aksini topmoqda.

Shuningdek, asarda kapitalistik jamiyatning muqarrar illatlari — *sinfiy tafovutlar, boylik va obro‘ga asoslangan ijtimoiy baholash mezonlari* tanqid ostiga olinadi. **Jek London Martin** obrazida g‘ayratli, o‘z-o‘zini tarbiya qilgan, ammo jamiyatning rivoj va ziddiyatlariga dosh bera olmagan ijodkor timsolini yaratgan. Shu nuqtai nazardan, roman nafaqat adabiy, balki *psixologik, sotsiologik* va *falsafiy* qimmatga ham ega bo‘lib, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun muhim materialdir.

Jek London — XX asr boshlarining eng mashhur amerikalik yozuvchilaridan biri bo‘lib, o‘zining hayotiy kurashi, betakror badiiy uslubi va insoniy ruhiyatga chuqr nazari bilan dunyo adabiyoti xazinasida o‘chmas iz qoldirgan ijodkordir. **Jek London 1876-yil 12-yanvarda** San-Frantsiskoda tug‘ilgan[2;41]. Bolalik yillari og‘ir mehnat, yo‘qsillik va ijtimoiy tengsizlik og‘ushida kechgan. Aynan shu hayotiy sinovlar uning ruhiyatida mustahkam xarakter, shiddatli erkinlikka intilish va “**hayot uchun kurash**” falsafasini shakllantirdi. **Jek London** o‘z asarlarida insonni tabiat bilan, jamiyat bilan, eng muhimi — o‘zi bilan kurashayotgan holatda tasvirlashni maqsad qilgan. U **Mark**

Tven, Dreyzer, Tolstoy kabi yozuvchilardan ilhom olgan bo‘lsa-da, o‘z uslubini topa olgan va “**Londoncha realizm**” maktabini yaratgan ijodkordir[5;81].

Chegarasiz tundralar, muzli okeanlar, hayvonlar instinkti va inson aqlining ziddiyati — bu obrazlar **Londonning** asarlarida hayot va o‘lim oralig‘idagi doimiy drama sifatida gavdalanadi. “**Oq so‘yloq**”, “**Hayotga muhabbat**”, “**Chaqiriqqa javob**”, “**Dengiz bo‘risi**” kabi hikoya va romanlarida u tabiatning yovvoyi qonunlariga qarshi kurashayotgan, biroq or-nomusini yo‘qotmagan inson qiyofasini yaratadi[3;74]. Aynan shuning uchun ham **London** ijodi zamonaviy inson uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Eng chuqur falsafiy va psixologik asarlaridan biri — “**Martin Iden**” romanidir. Bu asar **Londonning** shaxsiy hayotidagi ruhiy iztiroblari, adabiy muhitdagi yolg‘izligi va sinfiy ijtimoiy tizimga bo‘lgan ishonchsizligining o‘ziga xos mahsulidir. **Martin Iden** obrazi orqali **Jek London** o‘zining “*yozuvchi sifatida jamiyat tomonidan tan olinishi*” bilan “*odam sifatida yolg‘izlanishi*” o‘rtasidagi ziddiyatni muhrlagan. Bu roman — buzg‘unchi kuchlar bilan to‘qnashgan insoniy orzularning fojeasidir[4;69].

“**Martin Iden**” — **Jek Londonning** shaxsiy hayotidan ilhomlanib yozilgan romanlaridan biri bo‘lib, unda yozuvchi o‘z boshidan kechirgan voqealarni badiiy obraz orqali tasvirlaydi. **Jek London** kambag‘al hayotdan boshlab, o‘z ustida tinimsiz mehnat qilgan va nihoyat taniqli adib darajasiga yetgan inson edi. U ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi farq, san’atkor insonning jamiyatga moslasha olmasligi hamda kapitalizmning ruhiy inqirozga olib kelishi haqida ko‘p fikr yuritgan. Ushbu asarda **Martin Iden** timsolida **London** o‘z hayot yo‘lini aks ettiradi. **Martin** ham xuddi muallif kabi bilim va iste’dod orqali yuqori tabaqaga ko‘tarilishga harakat qiladi, biroq oxir-oqibat o‘z joyini topa olmaydi.

Yozuvchi o‘zi yoshligida ko‘plab og‘ir mehnat turlarida ishlagan — dengizchi, zavod xodimi, kir yuvish korxonasida oddiy ishchi bo‘lgan. Aynan shu tajribalari asosida u chuqur hayotiy manbalardan ilhom olib, asarlarini yaratgan. **Ruf** obrazining asosida esa Londonning ilk muhabbati bo‘lgan **Meybl Epplgart** yotadi[1;98]. Asarda ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi keskin tafovut aniq yoritilgan. **Martin** mehnatkashlar qatlamiga mansub bo‘lib, boy oilaning vakilasi **Ruf Morsega** oshiq bo‘ladi. Biroq **Ruf** va uning yaqinlari **Martinning** ijtimoiy kelib chiqishini kamchilik deb hisoblashadi. Bu esa jamiyatda insonning qobiliyati emas, balki uning moddiy va ijtimoiy mavqeい ko‘proq qadrlanishini ko‘rsatadi.

Asarning syujetiga qisqacha to‘xtalsak, bir kuni **Martin Iden** ismli yosh *dengizchi* ko‘chadagi bezorilardan **Arturni** himoya qiladi. **Arturning** oilasi badavlat va o‘qimishli insonlardan iborat bo‘lib, minnatdorchilik sifatida u **Martinni** kechki ovqatga taklif qiladi. Ularning *uyi, undagi suratlar, musiqa asboblari va kitoblar* **Martin** uchun yangi dunyo eshiklarini ochadi. Ayniqsa, **Arturning** singlisi **Ruf**

Martinga chuqur ta'sir ko'rsatadi – u qizni go'zallik va ilohiylik ramzi sifatida qabul qiladi. **Martin** unga mos bo'lish niyatida kutubxonaga boradi va o'zini o'qishga bag'ishlaydi.

U o'ta iqtidorli, qat'iyatli va tabiatan nozik tuyg'ularga ega yigit bo'lib, adabiyot va tilni o'zlashtirishga harakat qiladi. **Ruf** esa unga yordam beradi, biroq uning *konservativ qarashlari* tufayli **Martinni** jamiyat qoliqlariga solishga urinsa-da, bunga erisha olmaydi.

Oxirgi safaridan topgan mablag'ini sarflab, **Martin** yana dengizga yo'l oladi. U safarda o'z bilimlarini oshiradi, o'zini anglashga muvaffaq bo'ladi va yozuvchi bo'lishga qaror qiladi. **Oklendga** qaytgach, u o'zining ilk hikoyasini yozadi va gazetalarga yuboradi. Ammo **Ruf** bu ishdan mammun bo'lmaydi.

Ruf **Martinga** nisbatan mehr ko'rsatsa-da, hayot haqidagi o'z qarashlari uni to'liq tushunishga to'sqinlik qiladi. Qiz yigitning rasmiy ta'lim olishini xohlaydi, **Martin** esa maktab imtihonlarini topshiradi, biroq *grammatika* bo'yicha muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Bu holat **Rufning** unga bo'lgan munosabatini sovutadi. Bu orada **Martinning** yozgan hikoyalari nashr qilinmaydi, hech qanday izohsiz qaytariladi. U bunga qo'lda yozilganligi sabab deb o'ylaydi va **yozuv mashinkasi** ijaraga olib, yozishni mashq qiladi. Tinimsiz mehnat qiladi, ilm oladi va ijod qiladi. U o'z tasavvurlarini qog'ozga tushirishda yuqori darajaga chiqadi.

Keyingi dengizga chiqishiga bir necha hafta qolganida, **Martin** vaqtini sevgisiga bag'ishlaydi. **Ruf** bilan tez-tez ko'rishib turadi: ular birgalikda *kitob mutolaa qilishadi, velosipedda sayr qilishadi*. Bir kuni **Ruf** **Martinning** bag'rida bo'ladi... **Ruf** jismoniy sevgi haqida ko'p narsani bilmasa-da, **Martinning** o'ziga tortuvchi kuchini yuragidan his qiladi. **Martin** esa uning beg'uborligiga putur yetkazishdan cho'chiydi. Biroq, **Rufning** ota-onasi bu unashiruvdan mammun emas edi.

Martin endi moliyaviy daromad uchun yozishga qaror qiladi. U *portugaliyalik oddiy mehnatkash ayol* – **Mariya Silva** yashaydigan uydan kichik xona ijaraga oladi. Uning jismoniy bardoshi faqat *besh soat* uxlashga imkon beradi. Qolgan vaqtini u bilimga bag'ishlaydi: *noma'lum so'zlarni yozib boradi, o'rghanadi, adiblarning uslublarini tahlil qiladi* va "*voqealarga asoslangan qonuniyatlar*"ni izlaydi. Hali biror bir asari chop etilmaganidan u uyalmaydi. Uning fikricha, "**yozish — bu murakkab fikrlash jarayonining yakuniy bosqichi bo'lib, shaxsiy qarashlarni mujassamlashtirish va to'plangan dalillarni yagona nuqtai nazarga birlashtirishdir**". Shunga qaramay, u adabiy muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Puli tugaydi, *palto, keyin soat, so'ng velosipedini* garovga qo'yadi. Faqat *kartoshka* bilan oziqlanib, ochlik bilan kurashadi va faqatgina *opasi* yoki *Ruf* bilan ovqatlanishga imkon topadi. Kutilmagan holatda **Martin** mashhur jurnal tomonidan xat oladi. Jurnal uning asarini chop etmoqchi, biroq faqat **besh dollar** to'lashni taklif qiladi, aslida esa bu asar uchun **yuz dollar** berilishi kerak edi.

Martin sog‘lig‘i yomonlashib, og‘ir xastalikka chalinadi. Shundan so‘ng omad unga yuz buradi – jurnallar ketma-ket cheklar yubora boshlaydi.

Biroq, bu muvaffaqiyat uzoq davom etmaydi. Nashriyotlar uni aldamoqchi bo‘ladi, chop etilgan asarlari uchun pul undirish oson bo‘lmaydi. **Ruf** esa uni otasining nashriyotida *harf teruvchi* bo‘lib ishlashga taklif qiladi, **Martinning yozuvchi** bo‘lishiga ishonmaydi. **Morzlar** uyida **Martin** tasodifan **Ress Brissenden** ismli odam bilan tanishadi. **Brissenden** og‘ir xasta, o‘limdan qo‘rqmaydi, lekin hayotni har bir jihatdan sevadi. U **Martinni** adabiyot va falsafa bilan shug‘ullanadigan “*haqiqiy ziyyolilar*” bilan tanishtiradi. Ular bilan birga **Martin** sotsialistlarning yig‘ilishiga boradi, u yerda notiq bilan bahslashadi. Ammo soxta jurnalist tufayli gazetalar uni *sotsializm tarafdori, mayjud tuzumga qarshi chiqayotgan kishi* sifatida taqdim etadi. Bu maqola achchiq oqibatlarga olib keladi – **Ruf** unashtiruv bekor qilinganini bildiruvchi maktub yuboradi.

Martin hayotini davom ettiradi, lekin endi jurnallardan tushayotgan daromadlar ham unga zavq bag‘ishlamaydi – yozgan deyarli barcha asarlari chop etilayotgan bo‘lsa ham. **Brissenden** o‘z joniga qasd qiladi. Uning o‘limidan keyin **Martin** tomonidan yozilgan “**Efemerida**” deb nomlangan *she’riy doston* kuchli tanqidga uchraydi. **Martin** esa bu tanqidni **Brissenden** ko‘rmaganidan mammun bo‘ladi.

Martin Iden nihoyat shuhrat cho‘qqisiga erishadi, ammo bu yutuq unga endi qiziq tuyulmaydi. Uni ilgari kamsitgan va qadrsizlagan odamlar undan do‘stlik va uchrashuv so‘rashadi, ba’zilarini rad etmasa-da, ularga e’tibori qolmagan edi. *Markiz orollariga* borib, qamishdan qurilgan kulbada yashash orzusi unga ruhiy tasalli beradi. U yaqinlariga va o‘z taqdiri bilan bog‘liq odamlarga saxiylik bilan pul ulashadi. Endi unga na samimiy sevgisini izhor etgan yosh ishchi *Lizzi Konollining* muhabbati, na mish-mishlarga e’tibor bermay, **Martin** bilan qolmoqchi bo‘lgan **Rufning** kutilmagan tashrifi ta’sir o‘tkaza oladi. **Martin** orol sari suzadi. Endi hayotda davom etishning yo‘li qolmaganini anglaydi. Bir necha kun suzgach, o‘zini dengizga tashlaydi. O‘limdan qochish emas, balki yashash istagini so‘ndirish uchun nafasini ichiga yutadi va chuqurlikka sho‘ng‘iydi. Nafas tugaganda esa sirtga chiqishga urinishdan voz kechadi. U oq, charaqlagan nurni ko‘radi va tubsiz zulmatga tomon ketayotganini his qiladi. Oxiri hushidan ketadi...

Jek Londonning “Martin Iden” romani – *shaxsiy taraqqiyot, ijtimoiy adolatsizlik va insoniy orzularning jamiyat mexanizmlari bilan to‘qnashuvi* natijasida yuzaga keladigan fojiani chuqur badiiy talqin qilgan asardir. **Martin Iden** timsolida **London** o‘z davridagi ijtimoiy zinalarni bosib o‘tish jarayonidagi azob, ma’naviy inqiroz va yakka kurashni namoyish etadi. **Martinning** hayotga qarashlari, o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan intilishi va ichki izardorlari orqali muallif jamiyatning ikkiyuzlamachiligi va madaniy elitachilik tizimini fosh qiladi.

Romandagi ijtimoiy fofija – bu faqat bir shaxsning halokati emas, balki butun bir ijtimoiy tuzumga qo‘yilgan dahshatli savoldir: *inson o‘z mehnati va iste’dodi bilan haqiqatan ham tan olinishi mumkinmi?* Martin Idenning o‘z orzulariga erishgach, ularni butkul inkor etishi – bu nafaqat shaxsiy ichki inqiroz, balki jamiyatda haqiqat va qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning natijasidir. *Jek London “Martin Iden”* orqali shunchaki bir insonning hayot yo‘lini emas, balki bir davrning, bir jamiyatning murakkabliklarini tasvirlaydi. Shu boisdan, ushbu roman faqat adabiy asar emas, balki falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni o‘zida mujassam etgan kuchli hayotiy hujjat sifatida o‘qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Foner, Philip S. Jack London: American Rebel. The Citadell Press, 1964.
2. London, Jack. Martin Eden. Rinehart, 1956.
3. M. Mayavel. Dr. M. Madhavan. Manifestations of Dehumanization: A Critical Study of Jack London’s Martin Eden. - YMER || ISSN : 0044-0477.
4. Spiller, Robert E. A History of the United States. Macmillan, 1964, pp.1033-1037.
5. М.В. Худякова. Роман Дж. Лондона “Мартин Иден” в зеркале современного отечественного литературоведения. - ISSN 2542-2340. Державинский форум. 2019. Т. 3. № 10.